**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-farmoni. Toshkent. 2018-yil 5-mart (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018, 06/18/5368/0851-son).

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020, 07/20/5924/0081-son).

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020. 06/20/6099/1450-son).

(4). Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. Toshkent. 2011, 131-bet.

(5). Maxkamjanov K., Salomov R., Ikramov I. Jimoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik, T., “Iqtisod moliya”, 2008, 18-bet.

(6). Salomov R.S. Jimoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik, 1-jild, T., “ITA PRESS”, 2015, 9-bet.

(7). Jammatov J., Ro‘zmetov N. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Jismoniy qobiliyatlar). O‘quv qo‘llanma, “Barkamol fayz media”, 2020.

(8). Abdullaev A., Xonkeldiyev Sh. Jimoniy tarbiya nazarisi va uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, O‘z DJTI, 2005.

(9). Ашмарин Б.А. Теория и методики физического воспитания. Учебник, М., «Просвещение», 1990, 30 с.

(10). Абзалов Р.А., Абзалов Н.И. Теория и методика физической культуры и спорта. Учебное пособие, Казан, изд-во “Вестфалика”, 2013, 35 с.

**Zakirova Feruza Gulyamovna (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi; f.zakirova@mail.ru)**

## TIBBIY PEDAGOGIKANING FANLARARO ALOQALARI VA METODOLOGIK ASOSLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada tibbiy pedagogikaning fanlararo aloqalari va metodologik asoslari yoritilgan. “Tibbiy pedagogika” atamasi pedagogika tushuncha asosida shskllangan bo‘lib tibbiy ta’lim nuqtayi nazaridan insonni tarbiyalash va o‘qitishni bildiradi. Tibbiy pedagogika ta’lim jarayonini faqat bilim berish sifatida emas, balki insonning umumiy sog‘ligi va uning himoyasini ta’minlash vositasi sifatida ham namoyon qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tibbiy pedagogika, psixologiya, fiziologiya, evolutsiya, konseptual asoslar.*

**Закирова Феруза Гулямовна (Независимый соискатель, Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан; f.zakirova@mail.ru)**

## МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕДИЦИНСКОЙ ПЕДАГОГИКИ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются междисциплинарные связи и методологические основы медицинской педагогики. Термин «медицинская педагогика» сформирован на основе концепции педагогики и означает воспитание и подготовку человека с точки зрения медицинского образования. Медицинская педагогика представляет собой образовательный процесс не только как средство передачи знаний, но и как средство обеспечения общего здоровья человека и его защиты.*

***Ключевые слова:*** *медицинская педагогика, психология, физиология, эволюция, концептуальные основы.*

**Zakirova Feruza Gulyamovna (Independent researcher at the Institute of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan; f.zakirova@mail.ru)**

## INTERDISCIPLINARY RELATIONS AND METHODOLOGICAL BASES OF MEDICAL PEDAGOGY

***Annotation.*** *This article discusses the interdisciplinary relations and methodological foundations of medical pedagogy. The term "medical pedagogy" is formed on the basis of the concept of pedagogy and means the upbringing and training of a person from the point of view of medical education. Medical pedagogy represents the educational process not only as a means of imparting knowledge, but also as a means of ensuring the general health of a person and his protection.*

***Keywords:*** *medical pedagogy, psychology, physiology, evolution, conceptual foundations.*

**Kirish (Введение / Introduction).** “Tibbiy pedagogika” atamasi pedagogika tushuncha asosida shskllangan bo‘lib tibbiy ta’lim nuqtayi nazaridan insonni tarbiyalash va o‘qitishni bildiradi. “Tibbiy pedagogika” pedagogik ta’limning metodologik asosni tashkil etib, shaxsni rivojlanishga qaratilgan maqsadlar,

vazifalar va usullarni o‘zida ifodalaydi. Tibbiy pedagogika tibbiy bilimlarning o‘ziga xosligini, jumladan, ta’lim oluvchilarga insonlarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq fiziologik va psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda qaror qabul qilish ta’limotini o‘rgatadi. Bunday bilimlar kombinatsiyasini shakllantirishda pedagogika fani, albatta, asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Inson salomatligini qamrab olgan, tibbiy komponentlarga asoslangan tibbiy bilimlar birlashmasini o‘rganish esa ixtisoslashgan samarali tibbiy ta’lim va tarbiya jara-yoni jarayoni orqali amalga oshiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Literature review and methods).** Tibbiy pedagogikaning rivojlanishi va evolyutsiyasini o‘rganar ekanmiz, uning boshqa fanlar bilan aloqalari quyidagi omillar bilan asoslab berish mumkin. Jumladan, ta’lim-tarbiya berish va o‘qitish nafaqat pedagogika fanining, balki falsafa, tarix, psixologiya sotsiologiya, madaniyatshunoslik va boshqa ilmiy fanlarning ham ob’ekti hisoblanadi. Pedagogika fani esa usnbu fanlarning tadqiqot natijalari bilan chambarchas bog‘liq holda tajriba-sinov metodlari orqali ilmiy izlanishlar olib boradi. Shu boisdan pedagogikaning boshqa fanlar bilan metodologik va fanlararo bog‘liqligini aniqlash tibbiy pedagogikaning asosiy mohiyatini aniqlashga yordam beradi [1].

Tibbiy pedagogikaning metodoligik bog‘liqligini pedagogikaning boshqa fanlardan (masalan, falsafadan) oladigan fundamental g‘oyalari va umumiy tushunchalaridan hamda sotsiologik tadqiqot usullaridan tajriba-sinovda foydalanish bilan izohlash mumkin.

Tibbiyot pedagogikasining boshqa fanlardan olingan aniq natijalaridan foydalanish (masalan, psixologiya, tibbiyot, asab faoliyati fiziologiyasi va boshqalar) tibbiyotga oid murakkab tadqiqotlarda ishtirok etish uchun yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, tibbiy pedagogikaning fanlararo aloqalari insonning ijtimoiy fiziologik holati haqidagi bilimlarni birlashtirishga qaratilgan ilmiy ma’lumotlarni tadqiq etishdan iborat.

Pedagogik ta’limning tarixiy va tadrijiy rivojlanishi jarayonida insoniyatning ta’lim jarayonida psixologik, fiziologik va boshqa bilimlarni bosqichma-bosqich egallab borishi ularni taraqqiyot sub’ekti sifatida tibbiy va pedagogik bilimlarni umumlashtirgan holda o‘rganishga zamin yaratdi. Natijada tarixiy va pedagogik rivojlanish nuqtayi nazaridan, fanlararo aloqalar tibbiy pedagogikaning fanda yangi kasbiy faoliyat sohasi yoki predmet sifatida shakllanishiga olib keldi. Tibbiy pedagogikadagi fanlararo aloqalar inson haqidagi bilimlarni turli fan sohalari bo‘lgan tibbiyot, pedagogika, psixologiya va inson fiziologiyasi kabi fan tarmoqlari sohalaridan integratsiya qilish orqali shakllanishiga turtki bo‘ldi [2].

Tibbiy pedagogika insonni o‘rganishda va unga ta’lim berishda tibbiyotning asosiy funktsiyasi bo‘lgan inson salomatligi tamoyillari nuqtai nazaridan o‘rganadi. Bunda ta’lim-tarbiya jarayonining inson salomatligini saqlash yo‘nalishida rivojlantirilishi va kasalliklarning oldini olish va reabilitatsiya qilish pedagogik ta’lim bilan uyg‘un holda o‘rganiladi.

Tibbiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

•shaxsning tibbiy va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali o‘qitish usullari va yondashuvlarni aniqlash;

•sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish va inson o‘z salomatligini o‘zi nazorat qilishi;

•o‘z salomatligi va boshqalarning sog‘lig‘iga ongli munosabatni shakllantirishi;

•innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali bemorlarning moslashishi va reabilitatsiyasini qo‘llab-quvvatlash va takimillashtirishdan iborat [3].

Umuman olganda tibbiy pedagogika tibbiy bilimlar va pedagogik o‘qitish usullari o‘rtasida o‘ziga xos bog‘lovchi vazifasini o‘tashi bilan birga, inson salomatligini ta’minlashda maqsadli, shaxsiy rivojlanish pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu g‘oyalar ilk bor ta’lim, rivojlanish, o‘qitish va yosh avlod salomatligi haqida g‘amxo ‘rliklar o'rtasidagi fanlararo aloqalarni aks ettirar edi. Ushbu tarixiy-pedagogik tadqiqot uchun ta’lim va tibbiyot o‘rtasidagi asosli aloqalar shakllanib, ular tibbiy pedagogikaning amaliy faoliyat sifatida paydo bo‘lishining zaruriy shartlarini shakllantirdi. Keyinchalik, ushbu fanlararo aloqalar tibbiy pedagogikaning ilmiy soha sifatida rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlandi.

**Natijalar (Результаты / Results).** Tarixiy va pedagogik nuqtayi nazardan ilmiy faoliyat yo‘nalishlarining kengayib borishi tibbiy pedagogikaning mustaqil soha sifatida paydo bo‘lishiga, inson salomatligini ta’minlashda shaxsni rivojlantirishning ko‘p qirrali jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan qayta, yangicha uslubda tadqiq qilinishiga olib keldi. Natijada tibbiy pedagogika ta’lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish borasidagi masalalarini ilmiy tahlilga olishda bir nechta fanlarning tadqiqotlari va usullarni o‘zida birlashtirdi. Shunday qilib, fanlararo aloqalar tibbiy pedagogikaning yangi professional va ilmiy soha sifatida ri-

vojlanishida asosiy omilga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, inson salomatligini ta’minlash borasidagi tibbiy yo‘nalishga chuqurroq yondashuvni ta’minladi.

Tibbiy pedagogikada yuzaga kelgan metodologik asos ushbu yo‘nalish tarixida uning mustaqil fan sohasi sifatida shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni har tomonlama o‘rganish imkonini yaratdi. Ushbu bosqichlar tibbiyot, pedagogika va sog‘liqni saqlash sohasi o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi g‘oyalarning evolyutsiyasini shakllantirdi.

Tibbiy pedagogika borasidagi dastlabki g‘oyalarning kelib chiqishi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tibbiy bilimlar va pedagogik yondashuvlarni birlashtirishga qaratilgan dastlabki urinishlar sifatida talqin qilinib, bu ta’lim muassasalarida gigiena oid ta’limning berilishi hamda sog‘lom hayot tarzini o‘zida aks ettiruvchi, kasalliklarning oldini olishga qaratilgan ta’limning rivojlanishi bilan bog‘liq g‘oyalar bilan xarakterlanadi.

**Muhokama (Обсуждение/Discussion).** XVIII asrda tibbiy pedagogikaning fan sohasi sifatida shakllanishi tarixiy pedagogik rivojlanishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlari sifatida tahlil qilishda olimlaridan I.T.Pososhkovning odamlarga savodxonlikni o‘rgatish va har bir ijtimoiy sinf uchun maktablar yaratish zarurligi haqidagi g‘oyalari, V.N.Tatishchevning xalq ta’limi va maktab tarmog‘ini kengaytirish haqidagi g‘oyalari; I.I.Betskiyning ta’lim orqali “yangi odamlar avlodi”ni yaratish haqidagi g‘oyalari va G.S. Skovorodaning mamlakat pedagogik tizimida milliy o‘ziga xoslikni rivojlantirish haqidagi g‘oyalari, N.I. Novikovning insonni o‘ziga xos qimmatli bir butun sifatida tushunish g‘oyalari asosiy o‘rin egallaydi [4].

Tibbiy pedagogikaga oid konseptual asoslarning shakllanishi esa XX asr o‘rtalarida shakllanib, bu tibbiy pedagogikani inson salomatligini hisobga olgan holda o‘qitish va tibbiy ta’limning xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasi sifatida talqin qilish, shuningdek, tibbiyot va ta’lim o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning nazariy modellarini ishlab chiqishga olib keldi.

Tibbiy pedagogikaning amaliy usullari va texnologiyalarni ishlab chiqish esa XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib unda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, kasalliklarning oldini olish va bemorlarni reabilitatsiya qilishga qaratilgan maxsus ta’lim dasturlari ishlab chiqildi.

Tibbiy pedagogikaning hozirgi bosqichi esa XX asr oxiri – XXI asr boshlarida tibbiy pedagogikaning fanlararo xususiyatini mustahkamlash, sog‘liqni saqlash sohasidagi ta’lim jarayonlarini optimallashtirish uchun psixologik, pedagogik va tibbiy bilimlardan faol foydalanish asnosida shakllandi. Shunday qilib, tibbiy pedagogikaning metodologik asosi fan sohasi sifatida uni tarixiy rivojlanishini tizimli tahlil qilishni ta’minlab, tibbiyot va ta’lim o‘rtasidagi samarali o‘zaro ta’sir orqali inson salomatligini saqlash va yaxshilashdagi ahamiyatini ortirib bordi. Aniqrog‘i, tibbiy pedagogika uchun ishlab chiqilgan metodologik asos ta’lim tarixida tibbiy pedagogikaning fan sohasi sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy tadqiq qilish va asoslash imkonini yaratdi [5].

**Xulosa (Заключение/Conclusion).** Xulosa qilib aytganda, tibbiy pedagogika insonni o‘rganishda va unga ta’lim berishda inson salomatligi tamoyillari nuqtayi nazaridan yondashadi. Bu fan, tabiatan, tibbiyot va pedagogikaning birlashgan sohasidir va uning asosiy vazifasi ta’lim-tarbiya jarayonida inson salomatligini saqlash, mustahkamlash va tiklash yo‘nalishlarini o‘rganishdir.

Tibbiy pedagogika asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

▪Ta’lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash. Bu orqali yoshlarni sog‘lom turmush tarziga tayyorlash, zararli odatlardan saqlanishga o‘rgatish, jismoniy va ruhiy salomatlikni rivojlantirish;

•Kasalliklarning oldini olish, sanitar-gigiyena qoidalarini o‘rgatish, profilaktika ishlari bilan shug‘ullanish;

•Reabilitatsiya, ya’ni, kasalliklardan keyin yoki jarohatlardan so‘ng organizmni tiklash, sog‘lomlashtirish jarayonlarida pedagogik yondashuvni qo‘llashdan iborat.

Shunday qilib, tibbiy pedagogika ta’lim jarayonini faqat bilim berish sifatida emas, balki insonning umumiy sog‘lig‘i va uning himoyasini ta’minlash vositasi sifatida ham namoyon qiladi. Tibbiy pedagogika inson salomatligini targ‘ib qilish va saqlash orqali ta’lim jarayonini yaxshilaydi, kasalliklarning oldini olish va reabilitatsiya jarayonlarini pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtiradi. Zero, tibbiyot va pedagogikaning muhim integratsiyalashgan sohasi ham aynan shu jihatda namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Педагогика в медицине. Учебное пособие для студентов учреждений высш. проф. образования. Н.В.Кудрявая, Е.М.Уколова, Н.Б.Смирнова, Е.А.Волошина, К.В.Зорин. Под ред. Н.В.Кудрявой. 2-е изд., стер. М., Издательский центр «Академия», 2012, 320 с.

(2). Васильева Е.Ю. Педагогика в клинической практике врача. Учебное пособие, Е.Ю.Васильева,

М.Ю.Гайкина, Т.В.Тагаева. Архангельск, изд-во Северного государственного медицинского университета, 2017, 118 с.

(3). Мандриков В.Б. Педагогические знания в структуре непрерывного медицинского образования. Здоровье и образование в XXI веке. Журнал научных статей. 2017, № 2, с. 61–63.

(4). Педагогические основания профессиональной деятельности современного врача. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, /Куликов Сергей Иванович, Калининград, Балтийский федеральный ун-т им. И.Канта, 2011, 24 с.

(5). Гадиева Т.М. Роль педагогики в профессиональной деятельности врача. Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2018. Volume 8, Issue 12, с. 616.

**Nizamova Umida Sandjarovna (Andijon davlat Texnika instituti "Tillar va gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti, PhD; umidanizamova18@gmail.com)**

## NOFILOLOGIK YONALISHLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA PRODUKTIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada nofilologik yo'nalish talabalari uchun chet tilini o'qitishda produktiv yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda chet tilini o'rganish jarayonida talabalar nutqiy faoliyatining asosiy turlari bo'lgan gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda produktiv metodlarning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, nofilologik yo'nalish talabalari ehtiyojlaridan kelib chiqib, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda produktiv yondashuvning o'rni ko'rsatib beriladi. Maqolada amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan interfaol usullar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar hamda talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turlari tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari produktiv yondashuv chet tili ta'limi sifatini oshirishga hamda talabalarning kasbiy faoliyatida chet tilidan samarali foydalanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *produktive yondashuv, chet tilini o'qitish, nofilologik yo'nalish talabalari, kommunikativ kompetensiya, gapirish ko'nikmasi, yozish ko'nikmasi, interfaol metodlar, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim.*

## РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЯХ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется значение продуктивного подхода в обучении иностранным языкам студентов нефилологических направлений. Особое внимание уделяется эффективности продуктивных методов в развитии навыков говорения и письма как основных видов речевой деятельности. С учетом образовательных потребностей студентов нефилологических специальностей раскрывается роль продуктивного подхода в формировании коммуникативной компетенции. Также описываются интерактивные методы обучения, задания, основанные на реальных жизненных ситуациях, и виды учебной деятельности, способствующие развитию самостоятельного мышления обучающихся. Результаты исследования подтверждают, что продуктивный подход способствует повышению качества обучения иностранным языкам и эффективному использованию языка в будущей профессиональной деятельности студентов.*

***Ключевые слова:*** *продуктивный подход, обучение иностранному языку, студенты нефилологических направлений, коммуникативная компетенция, навыки говорения, навыки письма, интерактивные методы, профессионально ориентированное обучение.*

## DEVELOPING PRODUCTIVE SKILLS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL SPECIALTIES

***Annotation.*** *This article analyzes the importance of the productive approach in teaching foreign languages to students of non-philological specialties. The study focuses on the effectiveness of productive methods in developing speaking and writing skills as key components of students' communicative activity. Taking into account the specific needs of non-philological students, the article highlights the role of the productive approach in forming communicative competence. In addition, interactive teaching methods, real-life task-based activities, and learning strategies that promote students' independent thinking are described. The findings of the study demonstrate that the productive approach contributes to improving the quality of foreign language education and enhances students' ability to use a foreign language effectively in their future professional activities.*

***Key words:*** *productive approach, foreign language teaching, non-philological students, communicative competence, speaking skills, writing skills, interactive methods, professionally oriented education.*